XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-35-120-10-147-K/25 Olmaliq shahar

Olmaliq shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-sonli qonuni, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qaroriga asosan Toshkent Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1135-sonli, Olmaliq shahar hokimining birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Begiyevning 2025-yil 6-noyabrdagi 01-20-404/27-01-39/276-sonli xati, Olmaliq shahar Soliq inspeksiyasi boshlig‘i I.Aliyevning 2025-yil 9-dekabrdagi xatlarini inobatga olib, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, qurilish va kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2025-yil 10-noyabrdagi hamda 29-dekabrdagi yig‘ilish bayoni va xuloasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorning mahalliy budjetga tegishli ilovalari kiritilgan loyihasi jamoatchilik muhokamasi portalida (110632 ID), soliq stavkalari bo‘yicha ilovalari kiritilgan loyiha esa (111627 ID) jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilganligi va har ikala loyihalar bo‘yicha hech qanday e’tiroz yoki qo‘shimcha takliflar kelib tushmaganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Mazkur Qonun va qarorga muvofiq, Olmaliq shahar mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **110 015 870, ming.so‘m** va xarajatlari **110 015 870,0 ming.so‘mni** tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

4. Quyidagilar:

Olmaliq shahrining shahar budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga;**

shahar budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga;**

2026-yil uchun shahar budjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **3-ilovaga;**

Olmaliq shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **483 319,0 ming.so‘m** etib **4-ilovaga** muvofiq belgilanganligi;

shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 804 750,0 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar (yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari miqdorda 1 gektar noturar obyektlar uchun) **5-ilovaga;**

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar kesimida jismoniy shaxslar bo‘yicha 1 m^2 uchun yer soliq stavkalariga 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar **6-ilovaga;**

yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutlaq miqdorlari **7-ilovaga**;

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha Olmaliq shahar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari **8-ilovaga;**

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **9-ilovaga;**

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **10-ilovaga;**

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha shahar kesimida yerlari stavkalari kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **11-ilovaga;**

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **12-ilovaga**;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar MFYlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar miqdori **13-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i Sh.Begiyev, shahar soliq inspeksiyasi (I.Aliyev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

9. Shahar soliq inspeksiyasi bo‘limi boshlig‘i (I.Aliyev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

10. Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi hamda shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg’armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

11. Olmaliq shahar hokimining matbuot kotibi – Axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi S.Boymirzayev mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida, jumladan mahalliy gazetalarda keng yoritilishini hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

12. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Olmaliq shahar hokimining birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Begiyev bajarilishini ta’minlash shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Abdiyev), shahar Soliq inspeksiyasi (I.Aliyev) rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlar, qurilish va kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XAMDAMOV KOBIL MURATKULOVICH**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari haqida
MA’LUMOT

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Olmaliq shahri
	JAMI:	**110 015 870**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4 439 300
2	Foyda solig‘i	1 287 700
3	Aylanmadan olinadigan soliq	15 254 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	22 910 580
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	5 981 000
	Aksiz solig‘i jami	301 620
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*301 620*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 895 420
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	16 900 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 426 500
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 394 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 271 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	12 243 500
	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	0
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	0
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	666 250
15	Yig‘imlar	132 300
16	Jarimalar	621 700
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	291 000

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Olmaliq shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Olmaliq shahri
Xarajatlar miqdori, jami		**110 015 870**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*30 003 777*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*1 421 400*
2	Madaniyat bo‘limi	*6 941 400*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4 107 190*
4	Sport bo‘limi	*7 300 883*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 550 291*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*918 228*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*0*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 266 237*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*0*
10	Hokimiyat	*36 420 244*
	shundan:	0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*20 334 157*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 617 409*
	Zaxira jamg‘armasi	*1 804 750*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*704 512*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*704 512*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	19 803 446
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun ajratma me’yorlari

foizda

Hududlar nomi			**Olmaliq shahri**
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	5%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	18%
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Foyda solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	5%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	3%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	33%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	50%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	10%
		DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman (shahar)lar budjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Aylanmadan soliq	Tuman (shahar)lar budjetiga		100%
Davlat boji	Tuman (shahar)lar budjetiga		5%
Jarima	Tuman (shahar)lar budjetiga		5%
Yig‘imlar	Tuman (shahar)lar budjetiga		5%

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda Olmaliq shahar shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori haqida
MA’LUMOT

№	Hududlar bo‘yicha jami	2026-yil
1	Olmaliq shahri	483 319

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffisiyentlar
MA’LUMOT

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun (noturar obyektlar uchun)**
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)
1.	Olmaliq shahar	1.55

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yer soligʻi stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	**Jismoniy shaxslar boʻyicha, 1 kv.m uchun** (turar joylar uchun belgilangan oʻsish meyoridan oshmagan holda)
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)
1.	Olmaliq shahar	1.60

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent
1.	Olmaliq shahar	1.00

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari

1	Olmaliq shahar	1,15	1,15	1,15	1,15	1,00

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar
(qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Olmaliq shahar	1,15	1,20	1,20	1,20	1,15	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
10-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Olmaliq shahar	1,30	1,25	1,25	1,30	1,30	1,30	1,35

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
11-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Olmaliq shahar	1,10	1,00

*Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli.

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
12-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2026-yil minimal qiymat	koeffitsiyent	2026-yil stavka	2026-yil minimal qiymat	koeffitsiyent	2026-yil stavka
1	Olmaliq shahri	5,90	1,30	7,67	11,80	1,30	15,34

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-35-120-10-147-K/25 -son qaroriga
13-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 gektar uchun (noturar obyektlar)		Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i 1 kv.m uchun (noturar obyektlardan tashqari)	
		Koyeffit-siyenti	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)	Koyeffit-siyenti	Yer solig‘i stavkasi (so‘mda)
1.	Sufi Olloyor MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
2.	Temur Malik MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
3.	Xamza MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
4.	Terakli MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
5.	Toshkent MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
6.	Uvaysiy MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
7.	O’zbekiston MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
8.	Saxovat MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
9.	Usmon Nosir MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
10.	Hilol MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
11.	Yangi xayot MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
12.	Yulduz MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
13.	Furkat MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
14.	Chulpon MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
15.	Chambil MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
16.	Tinchlik MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
17.	Abdulla Kaxxar MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
18.	Olmaliksoy MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
19.	Olmalikovul MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
20.	Oydin MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
21.	Namuna MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
22.	Navruz MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
23.	Mustakillik MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
24.	Mukumiy MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
25.	Mirzo Ulugbek MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
26.	Kurpasoy MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
27.	Koinot MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
28.	Kimyogar MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64

29.	Kamalak MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
30.	Islom Karimov MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
31.	Zarbulok MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
32.	Dustlik MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
33.	Buston MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
34.	Bobur MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
35.	Bexbudiy MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
36.	Axmad Yassaviy MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
37.	Alisher Navai MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
38.	Abu Ali Ibn Sino MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
39.	Abdulla Qodiri MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
40.	Abdulla Avloni MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64
41.	Oltin MFY	1.2	80 910 000.00	1.2	752.64